

**AQSH HUKUMATI IDORALARI VA NOHUKUMAT
TASHKILOTLARI (NNT) TOMONIDAN O‘ZBEKISTON BILAN
IQTISODIY HAMKORLIKNING QO‘LLAB-QUVVATLANISHIDA XALQ
DIPLOMATIYASINING O‘RNI**

Boysariyev Muhridin Muzaffar o‘g‘li

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

07.00.01 - yo‘nalishi I bosqich doktoranti

E-mail: muxboysariyev1999@gmail.com

Tel: + 998902268599

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumat idoralari va nohukumat tashkilotlarining O‘zbekiston bilan iqtisodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, AQSHning Savdo va rivojlanish agentligi (TDA), Xorijdagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIC), Eksport-import banki (EximBank), Qishloq xo‘jaligi vazirligi va boshqa federal institutlarning yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirishdagi faol ishtiroki yoritilgan. Maqolada ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar dinamikasi, banklararo hamkorlik, shuningdek, xalq diplomatiyasining iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashdagi roli chuqur tahlil etiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga Amerika kapitalining jalb etilishi hamda kelgusidagi istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar keltiriladi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston–AQSH strategik hamkorligining evolyutsiyasi va uning iqtisodiy asosi to‘g‘risida ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: AQSH, O‘zbekiston, xalq diplomatiyasi, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, savdo munosabatlari, AQSH hukumat idoralari, nohukumat tashkilotlar (NNT), TDA, OPIC, EximBank, USAID, iqtisodiy diplomatiya, infratuzilma loyihalari, qo‘shma dasturlar, ikki tomonlama munosabatlar, strategik hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro moliyaviy institutlar.

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of U.S. government agencies and non-governmental organizations in supporting economic cooperation with Uzbekistan. In particular, it highlights the active involvement of the U.S. Trade and Development Agency (TDA), the Overseas Private Investment Corporation (OPIC), the Export-Import Bank (EximBank), the Department of Agriculture, and other

federal institutions in financing major investment projects, preparing feasibility studies, modernizing infrastructure, and implementing joint programs in healthcare and agriculture. The paper examines the dynamics of bilateral trade and economic relations, interbank cooperation, and the role of public diplomacy in strengthening economic ties. It also outlines the involvement of American capital in various sectors of Uzbekistan's economy and presents recommendations for promising future areas of cooperation. This study provides scholarly conclusions on the evolution of Uzbekistan–U.S. strategic partnership and its economic foundations.

Keywords: USA, Uzbekistan, public diplomacy, economic cooperation, investment, trade relations, U.S. government agencies, NGOs, TDA, OPIC, EximBank, USAID, economic diplomacy, infrastructure projects, joint programs, bilateral relations, strategic partnership, economic development, transnational corporations, international financial institutions.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и значение государственных органов США и негосударственных организаций в поддержке экономического сотрудничества с Узбекистаном. В частности, рассматривается активное участие Агентства по торговле и развитию США (TDA), Корпорации зарубежных частных инвестиций (OPIC), Экспортно-импортного банка США (EximBank), Министерства сельского хозяйства и других федеральных институтов в финансировании крупных инвестиционных проектов, подготовке технико-экономических обоснований, модернизации инфраструктуры, а также в реализации совместных программ в сферах здравоохранения и сельского хозяйства. В статье анализируются динамика двусторонних торгово-экономических отношений, межбанковское сотрудничество, а также роль публичной дипломатии в укреплении экономических связей. Кроме того, приводятся данные о привлечении американского капитала в различные отрасли экономики Узбекистана и предлагаются перспективные направления дальнейшего взаимодействия. Настоящее исследование дает научные выводы об эволюции стратегического партнерства между Узбекистаном и США и его экономической основе.

Ключевые слова: США, Узбекистан, публичная дипломатия, экономическое сотрудничество, инвестиции, торговые отношения, государственные органы США, ННО, TDA, OPIC, EximBank, USAID, экономическая дипломатия, инфраструктурные проекты, совместные программы, двусторонние отношения, стратегическое партнерство,

экономическое развитие, транснациональные корпорации, международные финансовые институты.

KIRISH

O'zbekistan Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik mustaqillik yillaridan buyon izchil rivojlanib kelayotgan strategik yo'nalishlardan biridir. Global iqtisodiy integratsiya, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xalqaro moliyaviy bozorlar o'zgarishi sharoitida ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ko'lam tobora kengayib bormoqda. Mazkur jarayonda AQSH hukumat idoralari hamda nohukumat tashkilotlarining O'zbekiston bilan hamkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. AQSHning Savdo va taraqqiyot agentligi (TDA), Xorijdagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIC), Eksport-import banki (EximBank), USAID va boshqa federal institutlar O'zbekistonning energetika, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, raqamli iqtisodiyot va sog'liqni saqlash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda.

Shu bilan birga, xalq diplomatiyasi ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalq diplomatiyasining institutsional mexanizmlari — ilmiy almashinuvlar, madaniy dasturlar, NNTlar faoliyati, biznes forumi va diasporalar bilan hamkorlik — iqtisodiy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada O'zbekiston–AQSH iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida xalq diplomatiyasining tutgan o'rni, hukumat va nohukumat tuzilmalarining amaliy ishtiroki hamda hamkorlikning istiqbollari kompleks tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi munosabatlar davlatlararo iqtisodiy xamkorlikning turli qirralari har tomonlama keng ko'lam kasb etgani tufayli o'zining hozirgi darajasiga kutarildi.

Mustaqillikning dastlabki yilidanoq mamlakatimiz rahbariyati AQSHning Savdo va rivojlanish agentligi (TDA), Xorijdagi Xususiy Investitsiyalar Koorporatsiyasi (OPIK) bilan izchil xamkorlik o'rnatib kelmoqda. Hamkorlikning huquqiy me'zonlarini belgilab olish uchun AQSHning Savdo va taraqqiyot agentligini (TDA) investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb etish maqsalida 1996 - yil iyunda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va TDA o'rtasida "Loyihalarning texnik iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda o'zaro almashuv memorandumini" imzolandi.

TDAning O'zbekistonlagi faoliyati boshlangan bilan buyon agentlik tomonidan tog'-kon, neft-gaz, kimyo sanoati hamda qishloq xo'jaligi sohalarida o'n ikkita

loyihaning texnik-iqtisodiy asoslarini tayyorlash uchun 6.0 million AQSH dollari ajratildi.

Jumlalan, 2001 yilla TDA tomonidan ikkita “Boeing - 767-300ER” samolyotlarini sotib olishning texnik-iqtisodiy asoslarini qisman moliyalash (485 ming AKTS dollari) va Olmaliq shahridagi “Ammofos” ishlab chiqarish birlashmasini tamirlash istiqbollarini urganish uchun grantlar ajratildi. 2000 - yil iyunida TDA agentligi Toshkentla Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida sog’likni saqlash sohasida loyihalari amalga oshirish uchun investitsiyalar jalb etish bo’yicha xalqaro konferensiya o’tkazdi. Unla TDA direktori Grand Meyson ishtirok etdi va 2001 - yil 29 - noyabrta imzolangan Memorandumga binoan sog’liqni saqlashni rivojlantirish uchun 5 mln. AQSH dollaridan ortik mablag’ miqdorida grant taqdim etilaligan bo’ldi.

2001 - yil dekabrda hukumat agetlliklari delegatsiyasining tashrifi yakunlari bo’yicha “o’zbekenergo” davlat aksionerlik kompaniyasi, “o’zbekturizm” milliy kompaniyasi, “o’zbekiston temir yullari” davlat aksionerlik kompaniyasi, Pochta va telekommunikatsiyalar agentligi, «o’ztibmaxsulot» xissalorlik jamiyatida o’zaro anglashuv to’grisidagi memorandumlar imzolandi. Ularda TDA bilan hamkorlikning aniq yo’nalishlari belgilab berilgan.

OPIK o’zbekiston tomoni takliflarini qullab – quvvatlab quyidagi sohalarda izchil hamkorlik qilib kelmoqda:

O’zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarila investitsiya loyixalarini amalga oshirishda OPIK kumagi bilan Amerika kompaniyalarining ishtirok etishi: o’zsugurta kafolati vositasila Amerika kompaniyalarini davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlarshga jalb etish;

Kichik va o’rta biznes sohasida loyihalarni amalga oshirishda OPIK sugurta kafolati vositasila amerikaliklarning xususiylashtirish investitsiyalarini jalb etish;

O’zbekiston Respublikasi va AQSH o’rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni qullab - quvvatlashda mamlakatlarimiz bank muassasalari o’rtasidagi hamkorlik ham muhim o’rin tutadi. Aytish kerakki, hozir banklararo hisob - kitoblarning barqarortizimi izchil faoliyat ko’rsatmoqda. Unda O’zbekistonning 12 ta tijorat banki ishtirok etayotani va ular Qo’shma Shtatlarning yetakchi banklarila 25 ta vakillik hisob raqamlariga ega ekanliklarini qayd etib o’tish zarur.

Davlatlararo darajaligi kelishuvlarning izchil amalga oshirilishi tufayli O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va AQSH Eksport import banki (Oksimbank) ustuvor investitsiya loyihalarini moliyalash va sug’urtalash, respublika iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlari rivojlanishini qullab-quvvatlash bo’yicha uzviy hamkorliki qilib kelmoqda.

AQSHning Eksimbanki bilan dastlab 1993 - yili qisqa muddatli sugurta dasturi buyicha operatsiyalar amala oshirilgan edi. Shundan so'ng "Ko'kdumalok" neft-gaz konila gaz konlensati hamda chuqur qatlamdagi neftni qazib olish uchun gaz kompressor stansiyasi o'rnatilishi, Buxoro viloyatila neftni qayta ishlash korxonasi sugurta kafolati vositasila amalga oshirilgan boshqa yirik loyihalar qatorida amalga oshirilish rejalashtirildi.

"Boing" samolyotlarining harid qilinishi, Qizilqum fosforit kombinati uchun kon uskunolari yetkazib berilishi, shuningdek, "Bolalar taomlari holding" hissadorlik jamiyati bolalar oziq-ovqati, "O'zOksayd" qo'shma korxonasida akkumulyator batareyalari ishlab chiqarilishini moliyalash, Respublika onkologiya ilmiy markazining zamonaviy tibbiy uskunalar majmui bilan jihozlanishi kabi ishlarni kursatish mumkin.

AQSh Eksimbanki ishtirokida mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining ustuvor tarmoklarida jami 24 mtrd. AQSh dollari miqdoridagi 18 ta loyixa moliyalashtirildi va amalga oshirilyapti. Mazkur loyihalar umumiy qiymatlangan kreditga berilgan mablag karyib 1,3 mlrd. AKSH dollarini, jumlanan, AQSH Eksimbanki tomonidan sugurta to'plamasi \$95 mn. AQSH dollarini tashkil yetali.

Ayni paytda berilgan kreditlar umumiy miqdoridan 502 mln, dollari uz vaktida to'plangan va ular bo'yicha 123 mlndan ziyod AQSh dollari miqdorida foiz to'plangan. AQSH Qishlok xo'jaligi vazirligi bilan xamkorlik, jumladan kredit dasturlari doirasilagi alokalar keyingi davrda ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar rivojida muxim yunalish kasb etmoqda. Birgina «R1-480» imtiyozli tovar kreditlari dasturi doirasila 1999 yildan buyon O'zbekistonga ajratigan mablaglarning umumiy kiymati 40 Million AQSh dollariga ga teng bo'lib 88,5 ming tonna soya. 38, ming tonna bugloyning qattik navlari. 51,3 ming ta guruch yetkazib berildi.

"GSM- 102" qiska muddatli eksport-kredit dasturi doirasida respublikaga umumiy qiymatining 63 million AQSh dollariga teng 203.9 ming tonna soya olib kelindi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi va AQSH o'rtasida ilmiy-texnikaviy hamkor ham faol amalga oshirildi. Qishloq xo'jalikida chikarish samaralorligini oshirish, ekinlarning yuqori xosilligi, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish, yer - suv resurslaridan unumli foydalanish, yaylovlarni saqlab qolish buyicha unta loyixa, shuningdek, boshka istiqboli loyihalar hamkorlikla amalga oshirilmoqda. Ayni paytda yana un ikkita loyihani amalga oshirish uchun mablaglar ajratilgan.

Eksportning mintaqaviy darajalda nazorati buyicha konunchilik bazasini yaratish, uzaro alokalarni mustaxkamlash borasila AQSH Savdo vazirligi bilan birga faol ish olib borimoqda.

AQSH va O'zbekiston orasida savdo aloqlari 1992 – 2014 yillar

Yillar	Eksport	Import	Balans
1992	50.7	0.8	49.9
1993	73.1	7.2	65.9
1994	89.5	3.0	86.5
1995	63.4	18.8	44.6
1996	351.8	159.0	192.8
1997	234.0	39.1	195.0
1998	147.3	34.1	113.2
1999	339.1	25.4	313.7
2000	157.2	41.2	116.3
2001	144.8	53.6	91.2
2002	138.5	77.1	61.4
2003	256.1	83.6	172.5
2004	192.0	88.0	14.0
2005	73.8	95.6	-21.8
2006	53.9	151.5	-97.6
2007	88.8	164.5	-75.8
2008	300.7	292.2	84.4
2009	97.5	89.5	8.0
2010	101.1	68.1	33.1
2011	12.6	51.2	51.4
2012	284.6	25.9	258.7
2013	356.4	26.4	329.8
2014	212.9	14.4	198.6
2015	138.0	9.7	128.2
2016	161.4	26.6	134.8

Ikki tomonlama shartnomaviy-xuquqiy bazani takomillashtirish, jumlanan, “Investitsiyalarni rag’batlantirish va o’zaro himoyalash tugrisidagi bitim”ni tezda

amalga kiritish va “Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish tug’risida bitim”ni imzolash, tovarlar va xizmatlar bozorlariga kirib borish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, o’zbekistonga nisbatan qullanilgan “ Jekson- Veniki” tuzatishini bekor qilish, mamlakatlarimiz o’rtasida doimiy mu’tadil savdo munosabatlarini qaror toptirish kuzda tutilgan.

Eksport-import banki, Savdo va rivojlanish agentligi (TDA). Xorijlagi xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIK bilan xamkorlik tarmoklarini kengaytirish buyicha erishitgan asosiy kelishuvlardan kelib chiqib, Amerika sarmoyasini O’zbekiston bozoriga jalb qilish borasidagi ishlar bundan ham izchil davom ettiriladi.

Tog’ - kon, samolyotsozlik, mashinasozlik va kimyo sanoati, agrosanoat majmui va transport infratuzilmasi texnologik bazasini rivojlantirishda Amerikaning yetakchi kompaniyalari bilan xamkorlik katta istiqbollarga ega. Uglevodorod xom ashyosini qidirish, razvedka qilish, kazib olish, yukori sifatli neft maxsulotlari ishlab chikarish borasila uzaro manfaatli xamkorlikka alohida ahamiyat berilmoqda.

O’zbekiston bozorida amerika kapitali ishtirokini ortirish imkoniyatlarilari biri — uning respublika iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarilagi yirik sanoat korxonalarini xususilashtirish jarayonila faol qatnashishi, shuningdek, kichik va o’rta biznesni rivojlantirishida ishtirok etishilari iboratdir. Amerika kompaniyalarining axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasilagi tajribasi O’zbekiston uchun g’oyat foydali bo’lishi shubhasiz, Zero, mamlakatimiz oldila axborot texnologiyalarini rivojlantirish va tegishli industriyani yaratish vazifasi turibdi.

Respublikamiz mintakalarila qishiloq xo’jalik mahsulotlari va meva - sabzavotni qayta ishlash sohasiga Amerika kompaniyalarining tug’ridan-tug’ri investitsiyalarini jalb etish hisobiga qo’shma korxonalar tashkil etish hamkorlikning ustuvor yo’nalishda biri hisoblanadi.

Hozirgi bosqichda qonunchilik bazasini takomillashtirish, investitsiya muhitini huquqlarini yanada yaxshilash intellektual mulk va patentlarni himoyalash, elektron savdo, Jahon Savdo Tashkilotita a’zo bo’lish bilan bogliq keng qaratilgan texnik hamkorlik dasturini amalga oshirish O’zbekiston Respublikasi uchun ahamiyatga molik.

AQSHning yetakchi kompaniyalari bilan marketing, injiniring, lizing va investitsiya xizmatlari hamda logistika aro yuk tashish sohasida qo’shma tuzilma tuzilmalar tashkil topishi o’z samarasini bermay qolmaydi.

Shuningdek, Amerika kompaniyalari sog’liqni saqlash, ta’lim va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy yo’naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etish imkoniyatiga ega. Zero, bu sohalar mamlakatimizning iqtisodiy

taraqqiyotida ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlari uchun mamlakatimiz manfaatlariga mos tushadi.

Shunday qilib ikki tomonlama hamkorlikning istiqbollari haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbekiston — Amerika munosabatlari muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lgan ko'plab tarmoq va sohalarni sanab o'tishimiz mumkin. Mustaqillik yillarila uzaro manfaatli hamkorlik tajribasi, savdo-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash jarayonida tuplangan salohiyat hamda belgilangan istiqboli yo'nalishlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. US Trade and Development Agency (USTDA). Annual Report. Washington, D.C., 2022–2024.
2. USAID Uzbekistan. “Economic Development and Governance Programs in Central Asia.” USAID Publications, 2020–2024.
3. **OPIC / DFC (U.S. International Development Finance Corporation).** Development Impact Reports, 2021–2024.
4. Шукурзода М., «Сотрудничество США-Узбекистан. В фактах и цифрах 1992-2016»Ташкент: «Niso-Poligraf». 2016.
5. **O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.** “O'zbekiston – AQSH iqtisodiy hamkorligi bo'yicha yillik hisobotlar.” Toshkent, 2020–2024.
6. **World Bank.** “Uzbekistan Country Economic Memorandum.” Washington, D.C., 2022.